

MALAY TILIDA FE'LLARNING YASALISHI

Mamatkulova Mahliyo Baxtiyor qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti

Janubiy va janubiy-sharqiy Osiyo tillari kafedrası

Malay tili o'qituvchi-stajyori

Ilmiy rahbar: Nurmatov S.

@ilmumelayu2021@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola malay tilida fe'llarning yasalishi, ularning turlari hamda ushbu so'zlarning gap tarkibida kelish hodisalarini yoritib beradi. Fe'l so'z turkumiga oid so'zlar yasalish jihatidan tahlil qilingan.

Annotation: This article explains the formation of verbs in the malay language, their types and the occurrence of these words in sentences. The words od verb groups are analized in the term of formation.

Malay tilida fe'l yasalishi 4 ko'rinishga ega bo'lib, ular quyidagilardir:

Kata kerja tunggal- o'zak morfemadan

Kata kerja terbitan- qo'shimcha qo'shish orqali

Kata kerja majmuk- qo'shma so'zlar yordamida

Kata kerja ganda- takror so'zlar orqali

Kata kerja tunggal- qo'shimchalarsiz ifodalangan fe'llardir. Malay tilida qo'shimchalardan tashkil topgan fe'llar soni ko'p emas hamda ushbu fe'llar kesim vazifasini hech qanday qo'shimchalarsiz bajara oladi. Ushbu turdagi fe'llar asosan o'timsiz fe'llardir. Misol uchun:

Ada- bor bo'lmoq

ikut- ergashmoq

Balik-qaytmoq

jaga- himoya qilmoq

Gagal- yiqilmoq

lahir- tug'ilmoq

Hancur- buzmoq

mara- siljimoq, olg'a yurmoq

Qo'shimcha yordamida yasalgan fe'lga malay tilida faqatgina bitta so'z ya'ni, berdiri so'zi misol bo'la oladi. Ushbu so'z *berdiri atas kaki sendiri* (bitta oyoqda turmoq) so'zidan kelib chiqqan.

Kata kerja terbitan- ushbu fe'llarda so'z asosiga qo'shimcha qo'shish yo'li orqali yasalgan fe'llar kiradi. Ushbu turdagi fe'llarni quyidagi qo'shimchalar yordamida yasash mumkin:

a)meN- ushbu qo'shimcha aniq nisbatdagi o'timli va o'timsiz fe'llarni yasashi mumkin. Ushbu qo'shimchani 4 ko'rinishi mavjud, bu esa so'z asosining birinchi harfiga qo'shilishiga ko'radir:

1. **meN-** qo'shimchasi asos so'z *m, n, ny, r, l, w* hamda **y** harflaridan boshlansa, **me-** ga yalanadi: *masak-memasak, nyala-menyala, lawan-melawan* kabi.

Ushbu turga, shuningdek, **p, t, k** va **s** harflaridan boshlanuvchi so'zlar ham kiradi. Bunday holatda esa, *p----m ga, t-----n ga k- ng ga, s—ny ga* o'zgaradi:

Pesan-memesan, tetap-menetap, kata-mengata, salin-menyalin kabi.

2. **meM-** mem-ga aylanadi, qachonki so'z asosi **b** hamda **f, p** va **v** harflaridan boshlanuvchi o'zlashma so'zlardan iborat bo'lganda: *beri-memberi, veto-memveto, fitnah-memfitnah, pamer-mempamerkan*

Ammo **p** harfi bilan boshlanib, mem-qo'shimchasini qabul qiluvchi bir necha so'zlar ham mavjud bo'lib, ular yuqoridagi qoida bundan mustasnodir: *pelawa-mempelawa, percaya-memppercaya, punya-mempunya, peduli-mempeduli*.

3. So'z asosi **d, c, j, sy** va **z** harflaridan boshlanib, o'zlashma so'zlar esa **t** hamda **s** harflaridan boshlangan holatda **meN-** qo'shimchasi **men-** ga aylanadi: *duga-menduga, cari-mencari, jemur-menjemur, syarat-mensyarat, zalim-menzalimi. tadbir-mentadbir, transkripsi-mentranskripsikan, stabil-menstabilkan, sintesis-mensistesis*.

4. **meN-** qo'shimchasi meng-qo'shimchasiga aylanish holati ham mavjud bo'lib, bunda asos **g, gh, kh** va **h** harflaridan hamda **a, e, i, o, u**, undosh harflaridan boshlanadi. O'zlashma so'zlardan **k** harfi bilan boshlanuvchi so'zlar ham ushbu turga kiradi: *gali-menggali, ghaib-mengghaibkan, khusus-mengkhusus, hantar-menghantar, ambil-mengambil*

b) meN- qo'shimchasi qo'shiladigan so'z turkumlari.

Ushbu qo'shimchasi qo'shiladigan so'z asoslari turli so'z turkumlariga oid bo'lishi mumkin. Ular quyidagilardir:

Ot so'z turkumi:

dayung	mendayung
lombong	melombong
kali	mengail
susu	menyusu

Sifat so'z turkumi:

putih	memutih
tinggi	meninggi
besar	membesar

tebal

menebal

Fe'l so'z turkumi (o'timli):

beri

memberi

jual

menjual

pakai

memakai

takut

menakutkan

Fe'l so'z turkumi (o'timsiz):

tangis

menangis

naik

menaik

laung

melaung

turun

menurun

c) meN- qo'shimchasini olgan fe'lning bir turi

Ma'lumki, fe'l aniq nisbatdagi o'timli va o'timsiz fe'lga bo'linadi. meN- qo'shimchasini olgan fe'llar ham o'timli yoki o'timsiz bo'lishi mumkin. Ushbu holatda meN- qo'shimchasini olgan fe'llar 3 turga bo'linadi:

i) so'z oxirida qo'shimcha olmagan aniq nisbatdagi o'timli fe'l- ushbu fe'llar so'z oxirida hech qanday qo'shimcha olmaydi hamda gap tarkibida o'zidan keyin to'ldiruvchi talab qiluvchi fe'llar hisoblanadi:

membaca buku- kitob o'qimoq

memakai baju- kiyim kiyimoq

ii) so'z oxirida qo'shimchasi bor aniq nisbatdagi o'timli fe'l- bunda meN- qo'shimchasini olgan fe'l oxirida –kan, - i qo'shimchasi uchraydi: **menjalankan**, **menjalani**, **memasukkan**, **memasuki** kabi

iii) aniq nisbatdagi o'timsiz fe'l- meN- qo'shimchasidagi fe'llar o'zidan keyin hech qanday to'ldiruvchi talab qilmaydi: *menangis* (yig'lamoq), *menaik* (ko'tarilmoq), *menurun* (tushmoq), *memutih* (oqlamoq) kabi. Ushbu fe'llar gap tarkibida yolg'iz to'ldiruvchisiz kelganda ham ma'no anglata oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdul Hamid Mahmood, 1983a. "Pengajaran Tatabahasa Malaysia", *Jurnal Persatuan Linguistik Malaysia*.
2. Adam, Tassilo dan J.P. Butler, 1948. *Grammer of the Malay Language*. New York: Hafner Publishing Co.
3. Asmah Hj.Omar, 1980. *Nahu Melayu Mutakhir*. Kuala Lumpur: Dewan Bahasa dan Pustaka.